

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

MASHARIPOV MANSURBEK MASHARIPOVICH

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASINING LEKSIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2023

UO‘K 811.512.133’373.612

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferat mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on Philological sciences**

Masharipov Mansurbek Masharipovich Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasining leksik xususiyatlari.....	3
Машарипов Мансурбек Машарипович Лексические особенности публицистики Махмудходжи Бехбуди.....	25
Masharipov Mansurbek Masharipovich Lexical features of Mahmudhuja Behbudiy’s publicism.....	49
E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	53

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

MASHARIPOV MANSURBEK MASHARIPOVICH

**MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASINING LEKSIK
XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Guliston – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2833 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Guliston davlat universiteti veb-sahifasining www.gdu.uz hamda «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalining www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Normamatov Sultonbek Ermamatovich**
Filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Mengliyev Baxtiyor Rajabovich**
Filologiya fanlari doktori, professor

Pardayev Azamat Baxronovich
Filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Namangan davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Guliston davlat universiteti huzuridagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/27.02.2020.Fil.91.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil ____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 120100, Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (0367) 225-02-75 fax: (0367) 225-40-42; e-mail: glsu_info@edu.uz.)

Dissertatsiya bilan Guliston davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: Guliston sh., 4-mavze. Tel.: (0367) 225-02-75.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «____» _____ kuni tarqatildi.

(2023-yil «____» _____ dagi _____ - raqamli reestr bayonnomasi)

M.R.Mamatqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A.Axrоров
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

F.G.Sharipov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida bugunga qadar badiiy, ilmiy, publitsistik matnlar, ularning formal, mazmuniy va leksik-semantik tuzilishi, metodik, ta'limiy ahamiyati jihatdan izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Bu boradagi izlanishlarning natijasi sifatida publitsistik janrning lug'aviy fondi, leksik xususiyatlari, janriy xoslanishi va kommunikativ imkoniyatlari doirasida qator lug'at, qo'llanma va darsliklar tayyorlanmoqda. Publitsistik janrga oid matnlarni leksik jihatdan tahlil qilish, lingvistik xususiyatlarini o'zaro taqqoslash matn va uning qonuniyatlarini belgilash yil sayin hal etilishi lozim bo'lgan muhim masalalar sirasiga kiritilib borilmoqda. Shunday ekan har bir ijodkorning leksik idiolektini o'rganish, tasniflash, yetuk publitsistlarning zamon va makon bilan bog'liq ravishda muayyanlashuvchi va baholanuvchi xususiy leksik zaxirasida namoyon bo'ladigan umummilliy leksik fondning immanent imkoniyatlarini ochish alohida ahamiyatga ega.

Dunyo tilshunosligida badiiy, ilmiy, publitsistik matnlarni leksik-semantik, sintaktik-semantik, semantik-pragmatik, kognitiv-semantik, funksional-uslubiy, kommunikativ-pragmatik va boshqa aspektlarda nazariy tadqiq qilish davr bilan hamohang ravishda dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu yo'nalishda olib borilayotgan tadqiqotlarda asosiy e'tibor publitsistik nutq va uslubni shakllantiruvchi leksik birliklar semantikasi va matnda ifoda etilgan axborotning kommunikativ vositalariga xos xususiyatlar va ularning zamiridagi lisoniy qonuniyatlarni ochib berishga qaratilmoqda. Zero, publitsistik asarlardagi lug'aviy unsurlar va ularning semantikasi, kommunikativ jihatlarini o'rganish muammoning nazariy asoslarini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida jadid ma'rifatparvarlarining tilshunoslik merosi, ular yaratgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlarning til xususiyatlarini o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, olingan ilmiy natijalar o'zbek milliy tilining XIX asrning oxiri XX asr boshlarida uning asosini tashkil etuvchi davr adabiy tilining muhim lisoniy xususiyatlari haqida yetarlicha tasavvur bera olmaydi. Zero, "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim"¹. Bunday muhim nazariy va amaliy ahamiyatga molik muammoning hal etilishida ma'rifatparvar jadid adiblari tomonidan yaratilgan barcha janrdagi asarlarning lingvistik tadqiqini amalga oshirish lozim bo'ladi. Jadid davri publitsistik asarlarining tili o'sha davr adabiy tili leksikasi hamda terminologiyasi rivojiga qo'shilgan munosib hissa bo'lib, uni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tadqiq qilish XX asrning 20-30-yillar davri o'zbek adabiy tilining rivojlanish va boyish tendensiyalarini belgilashda muhim va munosib material bera oladi. Bu holat tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий мажлиси ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. – Тошкент, 2022 йил 28 декабрь // www.uzlidesp.uz/news-of-party

Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ilmiy natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar hamda innovatsion rivojlanishining "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mahmudxo'ja Behbudiyning badiiy ijodi, ma'rifiy, pedagogik faoliyati haqida u hayotlik chog'idayoq maqolalar yozilgan. Ular orasida Munavvar Qori, Hoji Muin, Tavallo, Sadridin Ayniy, Abdulla Avloniy, Laziz Azizzoda, Abduqodir Shakuriy, Vadud Mahmudlar qoldirgan ma'lumotlar qimmatlidir.

Mustaqillik yillarida Behbudiy shaxsi, faoliyati, ijodiy merosini o'rganish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ular qatorida B.Qosimov², A.Aliyev³, Sh.Rizayev⁴, S.Avazov⁵, H.Saidov⁶larning tadqiqotlarini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Shuni qayd etish lozimki, B.Qosimov, A.Aliyev, Sh.Rizayev, S.Avazovlar tadqiqotlarida Mahmudxo'ja Behbudiyning ijodi asosan adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganilgan bo'lsa, H.Saidovning monografik tadqiqotida Behbudiy ijodi va faoliyati jurnalistik nuqtayi nazardan tahlil qilinib, uning muharrirlik va noshirlik faoliyatiga munosib baho berilgan.

Turkiston jadidlarining ma'naviy yo'lboshchisi, serqirra ijod sohibi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy ijodi va faoliyatining davr ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy hayotiga ta'siri yuqori bo'lgan. Bu, o'z-o'zidan, keyingi yillarda adib ijodi va faoliyati bo'yicha pedagogika, falsafa, tarixshunoslik fan sohalarida ham salmoqli tadqiqotlarni yuzaga keltirdi⁷.

² Қосимов Б. Маслақдошлар. – Тошкент: Шарқ, 1995.

³ Алиев А. Махмудхўжа Бехбудий. – Тошкент: Хазина, 1994.

⁴ Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997.

⁵ Авазов С. Махмудхўжа Бехбудийнинг ижодий мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995.

⁶ Саидов Х. Махмудхўжа Бехбудийнинг публицистик ва мухarrирлик фаолияти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.. – Тошкент, 2002.

⁷ Ахророва З. Махмудхўжа Бехбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифий-амалий фаолияти: Пед. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1997; Амридинова Д. Самарқанд жадидчилигининг ижтимоий-фалсафий асослари:

Mahmudxo‘ja Behbudiyning tilshunoslik faoliyati va u yaratgan badiiy asarlarning lingvistik xususiyatlari o‘zbek tilshunosligidagi ba’zi ishlar istisno qilinsa, mukammal darajada tadqiq etilgani yo‘q. Jumladan, akademik G‘.Abdurahmonov⁸ o‘z maqolasida adib asarlarining umumiy lingvistik xususiyatlari, lug‘aviy tarkibi va uning XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tilining shakllanishidagi ahamiyatini ko‘rsatishga harakat qilgan bo‘lsa, F.Bobojonov⁹ o‘z tadqiqotida jadidchilik vakillari yozgan dramalarning o‘zbek milliy adabiy tilining shakllanishidagi rolini Behbudiy va Avloniy asarlari leksikasi misolida baholashga intilgan.

Tadqiqotchi D.Rahmatova¹⁰ tomonidan Mahmudxo‘ja Behbudiyning lingvistik ta’limoti, asarlarining til va uslub xususiyatlari o‘rganilar ekan, ishda asosan tadqiq obyektini sifatida adibning “Padarkush” dramasi hamda “Kitob ul atfol” o‘quv darsligi, qisman publitsistik maqolalari (“Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnalidagi) tahlilga tortiladi. Bu ishlar adibning tilshunoslik merosi, o‘zbek milliy tili va uning asosini tashkil etuvchi o‘zbek adabiy tilining shakllanishidagi xizmati, yaratgan publitsistik asarlarining lingvistik xususiyatlari haqida to‘la tasavvur bera olmaydi. Zero, Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistik asarlarini to‘laligicha tadqiq obyektini sifatida lingvistik tahlil qilish, mutbuot nashrlaridagi maqolalarining leksik xususiyatlarini yoritish, adibning o‘zbek publitsistik nutqi va uslubi rivojida xizmatini ilmiy baholash buyuk ma’rifatparvar ijodining tilshunoslik yo‘nalishida o‘rganilmagan yana bir qirrasini namoyon etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi “Hozirgi o‘zbek adabiy tili va xalq shevalarining o‘zaro munosabati” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistik asarlari tili leksikasini o‘rganish, uning o‘ziga xos lug‘aviy, ma’naviy xususiyatlarini belgilashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

XX asr boshlaridagi sotsiolingvistik jarayonni tavsiflash, Behbudiyning davr adabiy tilini yaratish, takomillashtirish borasidagi xizmatlarini yoritish;

Behbudiyning o‘zbek publitsistik nutq va uslubi shakllanishi takomilidagi faoliyatini ochib berish;

Фалсафа фан. номз. дисс... – Тошкент, 2006; Долимов У. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари: Пед. фан. докт. дисс... – Тошкент, 2008; Ражабова Д. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари): Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 2003; Нишонов Г. Ўзбек публицистикасининг шаклланиши ҳамда ривожланишида “Ойна” журналининг ўрни ва аҳамияти: Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 2008; Ашурова Х. Самарқанд жадидларининг ижтимоий-сиёсий қарашлари (XX асрнинг биринчи чораги): Фалсафа фан.номз. (PhD) дисс... – Самарқанд, 2020.

⁸ Абдурахмонов Ғ. Бехбудий ва унинг ҳозирги ўзбек адабий тилининг шаклланишидаги хизматлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995.

⁹ Бобононов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Бехбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002.

¹⁰ Раҳматова Д. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг лингвистик таълимоти, асарларининг тил ва услуб хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Самарқанд, 2022.

Behbudiy publitsistikasida leksik-semantik munosabatlar voqelanishining lingvistik asoslarini ochib berish;

adib publitsistikasida qo‘llangan so‘z ko‘chimlarini aniqlash, ularning turlari va ma‘nolarini tavsiflash;

adib publitsistik asarlarining hozirgi o‘zbek adabiy tili me‘yorlarining belgilanishidagi ahamiyatini ko‘rsatishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Mahmudxo‘ja Behbudiyning O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida, Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan XX asr boshlarida nashr etilgan gazeta va jurnallardagi maqolalari, 2018-yil “Akademnashr” nashriyoti tomonidan nashrga tayyorlangan 2 jildlik “Tanlangan asarlar”i to‘plamiga kiritilgan publitsistik asarlari olindi.

Tadqiqotning predmetini Mahmudxo‘ja Behbudiyning XX asrning 20-30-yillarida davr adabiy tilini yaratish borasidagi tilshunoslikka oid qarashlari, publitsistik asarlarining til xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil, tarixiy-genetik, matniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek adabiy tilining XX asr boshlaridagi me‘yoriy murakkabligi va qorishiqqligi, uni yuzaga keltirgan ijtimoiy, davriy, hududiy kabi nolisoniy hamda tilning sinxron holatidan iborat lisoniy birliklarning nutqiy voqelanishidagi lingvistik omillari adabiy tilning leksik, grammatik, imloviy me‘yorlashuvidagi barqarorlik va beqarorlik jarayonlari tahlili misolida ochib berilgan;

Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasi tilining lug‘aviy tarkibi hamda unda qo‘llangan leksik birliklarning semantik qirralari ijodining ma‘rifatparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik mavzulari bilan aloqador ekanligi, bu holat publitsistik maqolalari tilining g‘oyaviy mazmunini ta‘minlashda muhim o‘rin egallashi isbotlangan;

Behbudiy publitsistikasida til ifodalari orasida sinonim, antonim, graduonimlar kabi leksik-semantik munosabatlarning o‘ziga xos tarzda voqelanishi, o‘zbek mumtoz adabiy tilida qo‘llangan leksemalarning metaforik, metonimik, sinekdoxik singari yangi ramziy ko‘chma ma‘nolarda qo‘llanganligi misollar tahlili asosida dalillangan;

adibning tildagi mavjud lug‘aviy boylikdan mohirona foydalanishi bilan birga, uni yangi leksema va so‘z shakllari hisobiga boyitishga intilganligi publitsistik asarlar matnida qo‘llangan okkazonalizmlar tahlili misolida asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Mahmudxo‘ja Behbudiyning davr adabiy tilini shakllantirish va takomillashtirish borasidagi lingvistik qarashlari o‘zbek tilshunosligining XIX asr oxiri XX asr boshlari davriga oid mavjud nazariy fikrlarni boyitishga xizmat qilishi dalillangan;

adibning o‘zbek tilshunosligida publitsistik uslubga xos bo‘lgan hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash, o‘quvchini bunga ishontirish hamda shu maqsadga muvofiq holda tilning lug‘aviy birliklaridan foydalanish kabi lisoniy me‘yorlarning shakllanishidagi xizmati ko‘rsatib berilgan;

publitsistik matnda sinonimiya, antonimiya, graduonimiya kabi til hodisalarining uslubiy va grammatik ma'no ifodalash darajasining ahamiyatli ekanligi Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik asarlarida qo'llangan leksik birliklar misolida ochib berilgan;

Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistik asarlarida leksik-semantik munosabatlar voqelanishining lisoniy tahlili, so'z ko'chmlari, okkazonalizmlarning yasalishi hamda publitsistik matnda qo'llanishiga oid material va nazariy xulosalar o'zbek tili tarixi, o'zbek tilshunosligi tarixi, o'zbek tili leksikologiyasi, semasiologiyasi sohasida ilmiy-tadqiqotlar olib borish hamda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda manba sifatida xizmat qilishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lingvistik tahlil metodologiyasi negizida shakllantirilgani, ilmiy-badiiy manbalarga tayanilgani, ishonchli va samarali tavsiflash, tasniflash, qiyosiy-tarixiy, tarixiy-genetik hamda statistik tahlil usullaridan foydalanilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati XX asr boshlari o'zbek tili va tilshunosligining muhim xususiyatlariga doir ma'lumotlarni kengaytirishi, o'zbek tili tarixi, o'zbek tilshunosligi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi hamda jadid adiblarining o'zbek ilmiy tilshunosligining tadrijiy takomilidagi xizmatlarini baholash uchun nazariy asos bo'la olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan xulosalardan oliy o'quv yurtlarining filologiya ta'lim yo'nalishlarida o'qitiladigan "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek dialektologiyasi", "O'zbek tili tarixi", "O'zbek tilshunosligi tarixi", "Leksikologiya", "Semasiologiya" kurslarining dastur va darsliklarini tuzish hamda leksikologiyaga doir mavzularni rejalashtirishda manba vazifasini o'tashi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining leksik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar asosida:

dissertatsiyadagi o'zbek adabiy tilining XX asr boshlaridagi me'yoriy murakkabligi va qorishqligi, uni yuzaga keltirgan ijtimoiy, davriy, hududiy kabi nolisoniy hamda tilning sinxron holatidan iborat lisoniy omillar izohiga oid materiallardan, shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining ma'rifatparvarlik, millatparvarlik, vatanparvarlik g'oyalari bilan aloqador bo'lgan omillarning izohi, tavsifiga doir tadqiq natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan OT-F1-030 "O'zbek adabiyoti tarixi" ko'p jildlik monografiyani (7-jild) chop etish" fundamental loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 8-apreldagi 04/1-694-son ma'lumotnomasi). Natijada, monografiyaning XIX asr oxiri XX asr boshlariga oid qismi adabiy tur va janrlar takomili, adabiy an'ana va o'ziga xoslik masalalarida yangi ma'lumotlar bilan boyishiga erishilgan;

tadqiqotdagi M.Behbudiy publitsistikasida qo'llangan o'zlashma til ifodalari orasidagi leksik-semantik munosabatning sinonim, antonim hamda graduonim kabi

turlari, ularning publitsistik matnda leksik-semantik jihatdan o'ziga xos tarzda voqelanishiga oid materiallardan; leksema va obrazli ifodalarning metaforik, metonimik, sinekdoxik usulda ko'chma ma'noda qo'llanishi, ularga yangi real va ramziy ma'nolar yuklanganligiga oid misollardan BV-Atex-2018-(143)-raqamli "Ko'zi ojiz shaxslar uchun kompyuter texnikasidan foydalanish, matnlarni o'qish va yozish imkonini beruvchi o'zbek tiliga asoslangan gapiruvchi dasturiy ta'minot va ovoz sintezatorini ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 8-apreldagi 01/10-688-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur grant loyihasi doirasida tayyorlangan o'quv-uslubiy lug'atda o'zlashma so'zlarning semantik tabiatini to'laqonli tavsiflash, izohlashga erishilgan.

Ma'rifatparvar jadid adibi Mahmudxo'ja Behbudiyning tilshunoslik merosi, publitsistik asarlarining til xususiyatlariga oid nazariy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanalida 2021–2022-yillarda efirga uzatilgan "Mavzu", "Tarixiy savol", "Manbalar so'zlaganda" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2023-yil 13-apreldagi 02-06-562-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur teleko'rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilgan holda ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan jami 13 ta, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, xorijiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti, predmeti, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqotning joriylanishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma'lumot berilgan.

Dissertatsiyaning "**Mahmudxo'ja Behbudiy ijod qilgan davrdagi ijtimoiy-lisoniy vaziyat va o'zbek publitsistik uslubining shakllanishi**" deb nomlangan birinchi bobi ikki bo'limdan iborat. "Mahmudxo'ja Behbudiy va davr adabiy tili" deb nomlangan birinchi bo'limda dastlab Mahmudxo'ja Behbudiyning tilshunoslik faoliyati, u yaratgan badiiy, ilmiy, dramatik, publitsistik asarlarning o'zbek tilshunosligida o'rganish darajasi izohlangan.

Mahmudxo'ja Behbudiy ijod etgan davrdagi sotsiologiyaviy sharoit adib yaratgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlar tilidagi lisoniy xususiyatlarning sabab va

ildizlarini topish va anglashga imkon beradi. O‘zbek adabiy tilining mazkur davri ijtimoiy-siyosiy va lisoniy jihatdan juda murakkab edi. Ijtimoiy-siyosiy muammolar, ta’lim-tarbiya, maorif masalalari kun tartibida turgan ushbu davrda milliy til, adabiy tilga munosabat, tilni davr talablariga moslash, uning umummilliy adabiy til sifatidagi rivojlanish yo‘llarini belgilash kabi murakkab nazariy va amaliy, milliy va ma’rifiy muammolar kun tartibida ustuvorlik kasb etardi. Adib yuqorida ta’kidlangan murakkab davrda ijod qildi. Mazkur davr adabiy tiliga baho berar ekanmiz, kuzatishlar asosida XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek milliy tilining quyidagi ijtimoiy tarmoq va ko‘rinishlari mavjudligini ta’kidlash o‘rinli bo‘ladi: 1) XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o‘zbek badiiy adabiyoti tili; 2) XX asr boshlaridagi yangi shakllanib kelayotgan o‘zbek matbuoti tili; 3) o‘sha davr o‘zbek ilmiy va ma’rifiy adabiyot tili; 4) o‘zbek folklori asarlari tili; 5) o‘zbek xalq lahja va shevalari tili. XX asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tiliga baho berganda o‘zbek tilining keltirilgan til hodisalarining xususiyatlari va o‘zaro munosabatini hisobga olgan holda ish tutish maqsadga muvofiqdir.

Bobning “O‘zbek publitsistik uslubi shakllanishida Behbudiyning o‘rni” deb nomlangan ikkinchi bo‘limida XX asrning boshlarida Turkistonda taraqqiyparvar jadidlarning o‘z matbuoti orqali millatparvarlik, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib etishlari, ta’lim tizimini yangilash, adabiy tilni xalq tiliga yaqinlashtirish borasidagi harakatlari natijasida so‘z san‘atiga hayotiy ehtiyoj sifatida kirib kelgan o‘zbek publitsistik nutqi va uslubining shakllanishi, jadidlarning ma’naviy yo‘lboshchisi hisoblangan Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistik ijodining bu jarayondagi o‘rni yoritilgan.

Davr adabiy tili holati publitsistik uslub shakllanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazayotgan edi. Mahmudxo‘ja Behbudiy milliy matbuot masalasiga millat vazifasi deb qaraydi. Shu bois 1903-yildan turli matbuot nashrlarida ishtirok eta boshlaydi. Jumladan, “Turkiston viloyatining gazetisi”da “Samarqanddan maktub” (“Pismo iz Samarkanda”) nomi ostida uning ilk maqolasi e’lon qilinadi. Keyinchalik “Ulfat”, “Vaqt”, “Sho‘ro”, “Irshod”, “Toza hayot”, “Mehnatkashlar tovushi”, “Hurriyat”, “Najot”, “Ulug‘ Turkiston”, “Samarqand”, “Tujjor”, “Oyina”, “Tarjumon” nashrlarida o‘z maqolalari bilan ishtirok etadi. Hoji Muinning aytishicha, vaqtli matbuotda uning 200 ga yaqin maqolalari bosiladi.¹¹ Bu kabi nashriyot va vaqtli matbuot ishlarining jadal faollashuvi hamda 20-30-yillarda o‘zbek jadid adiblari ijodida badiiy publitsistikaning keng o‘rin olishi adabiy tilda publitsistik uslubning shakllanishi uchun asosiy omil bo‘ldi va adibning mazkur janrdagi ijod namunalari o‘zbek publitsistik uslubining shakllanishi va taraqqiyotiga muayyan darajada xizmat qildi. Behbudiy publitsistikasi uslubida o‘zbek tilining adib yashagan davrda me’yor bo‘lgan lisoniy xususiyatlari o‘z ifodasini topgan. Tahlillarimizga ko‘ra, bu davr publitsistik uslubi tilida quyidagi bir-biriga qarama-qarshi nuqtayi nazarlar va o‘shandan kelib chiquvchi lisoniy vaziyat mavjud edi: a) o‘zbek mumtoz adabiyoti tilida qo‘llanilgan an’anaviy lisoniy me’yorlar, an’analardan foydalanish; b) adabiy tilning xalq tiliga yaqinlashuvi bilan aloqador bo‘lgan xalqchil lisoniy omillar;

¹¹ Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.80.

s) umumturkiy til yaratish g'oyasi tufayli yuzaga kelgan yangi jarayonlar ta'siri;
d) hali unchalik kuchli omilga aylanib ulgurmagan rus tilining ta'siri.

Publitsistik uslubga xos bo'lgan hozirjavoblik, hayotiy masalalarni mantiqiy mulohaza, dalil, asoslar bilan tushuntirish, isbotlash, o'quvchini bunga ishontrish, his-tuyg'ulariga ta'sir etish, tashviqot-targ'ibot hamda shu maqsadga muvofiq holda tilning hissiy-ta'siriy vositalaridan o'rinli foydalanish kabi lisoniy me'yorlarning qaror topishida Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasining o'ziga xos o'rni bor. Buni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1) Behbudiy publitsistik maqolalarida o'zi yashagan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni, jaholat illatlarini, Turkiston o'lkasining mustamlaka bo'lishi sabablarini, maktab va morif masalalariga oid yangiliklarni targ'ib qilar ekan, yurt ulamolari, davr mutaassiblarini bu muammolar yechimiga yo'naltirishda o'z fikrini ishonchli faktlar bilan dalillash yo'lidan boradi. Bu esa XX asr boshlarida publitsistik uslubga xos me'yorlardan biri, ya'ni publitsistning "o'z fikrini ishonchli faktlar bilan asoslash" me'yoring shakllanish jarayonini ko'rsata oladi; 2) adib maqolalarida ijtimoiy-siyosiy mavzularni yoritish, "usuli jadid" maktablarida dunyoviy bilimlar berish, ilgari surilayotgan dunyoviy fanlar haqidagi ma'lumotlardan o'quvchilarni xabardor qilishni maqsad qilar ekan, mavzuga oid maxsus ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va boshqa fan sohalariga oid terminologiyadan unumli foydalanadi. "Turkistonda islohot", "Ilmning foydasi", "Jug'rofiya ilmi", "Islohi tahsil", "Ikki emas, to'rt til lozim", "Til masalasi", "Hifzi sihatti ila" kabi maqolalarida turli teminosistemalarga oid birliklarning keng qo'llanganligini kuzatish mumkin. Bu holat leksik va grammatik birliklarning publitsistik nutq va uslubga mos tarzda funksional xoslanishining shakllanish jarayonini ko'rsatadi;

3) publitsistik uslub badiiy uslubga xos xususiyatlarni ham o'zida birlashtiradi. Masalan, fikrni bayon qilish jarayonida obrazli ifodalarni ishlatish, ya'ni istiora, epitet, epigraf, o'xshatish, uyushiq bo'lak, takror, mubolag'a, frazema, maqol kabi his-tuyg'uga ta'sir etuvchi vositalardan unumli foydalanishni ham taqozo etadi. Garchi, bu uslubning ilk shakllanish davrida ijod qilishiga qaramasdan, Behbudiy publitsistikasida nutqning obrazlilikini ta'minlovchi bu kabi vositalarning salmoqli o'rin egallashi davr adabiy tili, xususan, publitsistik nutq va uslubi rivoji uchun alohida ahamiyat kasb etgan;

4) adibning o'zbek publitsistik uslubi rivojidadagi xizmati uning tilga ijodiy yondashganligi bilan ham izohlanadi. U publitsistik maqolalarida faqatgina tilda avvaldan mavjud so'zlar, iboralardagina foydalanmagan, balki ba'zi hollarda aytmoqchi bo'lgan fikrni, tushunchani aniqroq, yaxshiroq, kuchliroq, ta'sirchan ifodalaydigan so'zlarni topishga, lozim o'rinlarda ularni o'zi yaratishga, original tarzda qo'llashga intilgan. Bu kabi original qo'llanishlar maqolalar matnida uchraydigan *bahrasizlik*, *ilmxona*, *bechorachi*, *quvvatboz*, *uzrxohlik*, *bulhavasona*, *moziyparast*, *muqimgoh*, *nointizomlik* kabi okkazional yasalmalarda, "haq olinur, berilmas", "kelar zamon uchun hozirlanaylik, o'tgan zamon uchun emas", "tiyotr ibratxonadur", "zamoncha ilmi diniy va zamoniy kerak" kabi aforizmlarning yaratganligida ko'rinadi. Bu hol Behbudiyning uslubiy mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik faoliyati XX asr boshlaridagi yangi o‘zbek adabiy tilining shakllanish davriga, til birliklarining me‘yorlashishidek murakkab jarayonga, ya‘ni “eskilik” bilan “yangilik” o‘rtasida kurash borayotgan bir davrga to‘g‘ri keldi. Tildagi me‘yoriy ko‘rinishlarning tanlana borishi, davr adabiy tilini shakllantirish ishiga M.Behbudiy ham publitsistik asarlarining tili va uslubi orqali sezilarli hissa qo‘shdi.

Dissertatsiyaning “**Behbudiy publitsistikasida leksik-semantik munosabatlarning voqelanishi**” deb nomlangan ikkinchi bobi adib publitsistikasidagi lug‘aviy birliklarning leksik-semantik munosabati va publitsistik asarlari matnida nutqiy voqelanishi masalalari tadqiqiga bag‘ishlangan.

Bobning birinchi bo‘limi “Sinonimlarning leksik-semantik va qo‘llanish xususiyatlari” deb nomlanadi. Sinonimlar fikrni aniq va ta‘sirchan qilib ifodalash nuqtayi nazaridan publitsistik uslub tilining ham boy va rang-barangligini ko‘rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, badiiy so‘z san‘atkorlari qatori publitsistlar ham ulardan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Tadqiq obyekti bo‘lgan Behbudiy publitsistikasi tilida ham bu holatni kuzatish mumkin. Maqolalar matnida qo‘llangan ma‘nodosh so‘zlarni geneologik tarkibi nuqtayi nazaridan: a) arabcha o‘zlashmalar asosidagi sinonimlar; b) fors-tojikcha o‘zlashmalar asosidagi sinonimlar; v) gibril (qorishiq) holda qo‘llangan sinonimlarga ajratish mumkin. M.Behbudiy publitsistik maqolalarida arabcha o‘zlashmalar asosidagi sinonimlarning hozirda eskirgan lug‘aviy qatlam tarkibiga o‘tgan variantlari: “*Quvvai hokimag‘a molik ruslardan boshqa unsurlar ham bizlarg‘a din, mulk va sarvatimizg‘a g‘alaba qiladurlarki, Rusiya davlati emas, o‘zimiz sabab bo‘lamiz*”¹²; hozirgi o‘zbek adabiy tiliga xos variantlari: “*Tiyotr va‘z va tanbih etguvchi hamda zararlik odat, urf va taomilning qabh va zararini aynan ko‘rsatguvchidir*” (TA, IT, 412-b); adresat ongi va hissiyotiga ta‘sir o‘tkazuvchi lingvistik vosita sifatida uslubiy xoslangan shakllarining nutqiy qo‘llanishi tahlilga tortilgan: “*Yoshlardan himmat va g‘ayrat, boylardan shafqat va marhamat kerak*” (TA, IIT, 16-b).

Tekshirishlarimiz adabiy til tarixida sinonim sifatida voqelangan, keyinchalik esa qismlari o‘zaro teng munosabatda bog‘lanib, juft so‘z sifatida me‘yorlashgan leksik birliklar Behbudiy publitsistikasidagi fors-tojikcha o‘zlashma sinonimlar tarkibida mavjudligini ko‘rsatdi: “*...Erta ochlikdin paydo bo‘ladurgan talon va taroj yoinki kasallikg‘a hamma narsasi talanib va yonilib ketsa*”; “*Dizaxdan kelgan soldatning bayoni jon va taning‘a ta‘sir etib, asablarimni titratdi*” (TA, IT, 384-b). Misollarda ma‘nodosh sifatida qo‘llangan, bir sinonimik uyani tashkil etuvchi talon va taroj, jon va tan leksemalari XX asr boshlari o‘zbek publitsistik uslubida sinonim sifatida qo‘llanib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida juft so‘z qolipida me‘yorlashgan. Muallif maqolalari mazmuniga publitsistik ruh, turli konnotativ ma‘nolar bag‘ishlash maqsadida genetik tarkibi turlicha bo‘lgan leksemalarni bir sinonimik qatorda yonma-yon keltirib, sinonimlikni vujudga keltirgan o‘rinlar ham uchraydi. Fors-tojikcha+arabcha qorishiq (gibril) sinonimlar: “*Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o‘z millatining oyandasi uchun yo‘l ko‘rsatur, mashvarat berur, millat*

¹² Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. (нашрга тайёрловчи Сирожиддин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.300. Bundan keyingi misollar ham shu manbadan olindi, TA qisqartma shaklida qavs ichida sahifasi ko‘rsatildi.

axloqining islohi uchun masjidlarda pand va nasihat berur... (TA, IT, 389-b); arabcha+fors-tojikcha qorishiq (gibrid) sinonimlar: “*Turkistonning har bir shahrining va, hatto, ba’zi bir qasaba va ko’ylarining shevasi boshqadur*” (TA, IIT, 29-b); arabcha+ruscha qorishiq (gibrid) sinonimlar: “*Turkiston yoshlaridan ushbu to’g’rida bir necha e’tiroz, protest ham kelib, jumladan, Toshkandniki “Oyina”da yozildi*” (TA, IT, 35-b). Adib publitsistikasida emotsional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashadigan leksik birliklardan biri bo’lmish sinonimlarning semantik tabiati, genetik tarkibi, qo’llanish xususiyatlari davr adabiy tiliga xos bo’lgan lisoniy xususiyatlarni o’zida ifodalaydi.

Bobning ikkinchi bo’limi “Antonimlarning leksik-semantik va qo’llanish xususiyatlari” deb nomlangan. Har qanday publitsist o’z maqolalarida tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, xabarlarini dalillash, ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib zid ma’noli so’zlarni ishlatadi. Biroq antonimlarning estetik qiymat kasb etishi, ularning publitsistik nutqdagi me’yori, geneologik tarkibi, uslubiy qo’llanishi hamda so’z turkumlariaro voqelanishi davr nuqtayi nazaridan farqlanadi. Mahmudxo’ja Behbudiyning publitsistik asarlarida qo’llangan zid ma’noli so’zlar xilma-xil leksik kategoriyalarni, chunonchi, insonlarga xos bo’lgan xarakter-xususiyatni; hayvonlar, jonli va jonsiz predmetlarning xususiyat, holatini; harakat yoki belgining miqdorini ifodalash nuqtayi nazaridan ma’lum so’z turkumlariaro voqelangan. Ularni quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

1. Leksik-semantik antonimlar. Adib publitsistikasida tilda an’anaviy tarzda qo’llanib kelayotgan bunday zid ma’noli so’zlarning salmoqli miqdorini sifat va ravish so’z turkumlariga oid so’zlar tashkil etishi aniqlandi, ular leksik-semantik jihatdan 1) kishilarga xos bo’lgan belgi-xususiyatni ifodalovchi sifat antonimlar: *bexabar-xabarsiz, besavod-savodli, dinli-dinsiz, olim-johil, ulug’-kichik, erli-ersiz, kuchli-kuchsiz* kabi; 2) narsalarga xos bo’lgan belgi-xususiyatni ifodalovchi sifat antonimlar: *diniy-dunyoviy, qadim-jadid, oson-qiyin, issiq-sovuq, keng-tor, baland-past, uzun-qisqa, maqbul-nomaqbul* kabi; 3) kishi va narsalar uchun umumiy bo’lgan belgi-xususiyatni ifodalovchi sifat antonimlar: *qart-yosh, yaxshi-yomon, jonli-jonsiz, epchil-noshud, sodda-ayyor, to’q-och* kabi turlarga ajratib tahlil qilindi. Behbudiy publitsistikasida sifat turkumiga oid bunday leksik-semantik antonimlarning hozirgi adabiy til nuqtayi nazaridan arxaiklashgan shakllari ham uchraydi: “*Biz Turkiston musulmonlarig’a lozimki, avvalo qadim va jadid nizo lavzisini qo’yib, o’zaro ittifoq istasak*” (TA, IT, 474-b). *Qadim* va *jadid* leksemalari mavjud lug’atlarda antonim sifatida qayd etilmaydi, biroq ular anglatgan ma’no esa adabiy til tarixida o’zaro zidlanish hosil qiladi: QADIM “o’tgan, ilgarigi, ko’hna, eski”; JADID “yangi, boyagi, oxirgi” (O’TIL, II jild 64-bet; V jild, 204-bet). Demak, leksemalar anglatgan yangi va eski semalar asosida bu ikki so’z XX asr boshlaridagi o’zbek publitsistik uslubi tilida antonim sifatida qo’llangan. Shuningdek, muallif *ulug’ - kichik* sifat antonimlarini alohida (yakka) shaklda qo’llab, voqea-hodisaning mohiyatini, ahamiyatini ta’kidlashga; juft shaklda qo’llab umumiy grammatik ma’no ifodalashga xizmat qildirgan: “*Ulug’lariga hurmat va rioyat qildilar. Kichiklarig’a marhamat qilib, shul tariqa musulmon nomini jahong’a mashhur qildilar*” (TA, IT, 274-b); “*Takror aytamanki, ulug’ - kichik baravar ishlamoq kerak*” (TA, IT, 475-b). Leksik-

semantik antonimlarning bu kabi qo‘llanish xususiyatlari dissertatsiyada batafsil yoritilgan.

2. Funksional-semantik yoki kontekstual antonimlar. Til ilmida leksik ma’nolari jihatidan antonim bo‘lmasdan, faqat matn tarkibidagina qarama-qarshi ma’noda ishlatilgan so‘zlarga kontekstual antonimlar deya ta’rif berilgan¹³. Bunda publitsist, yozuvchi va shoirlarimiz antiteza usulidan foydalanib, nutqning ifodali, ixcham va o‘tkirlikka erishadilar. Bunday zid ma’nolilik muvaqqat hodisa hisoblanadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning publitsistik maqolalarida antonimlarning ba’zilari kontekstual xarakter kasb etgan. Kontekstual yoki funksional-semantik antonimlar leksemaning ma’no imkoniyatlarini kengaytirib, muallifning lingvistik mahoratini aks ettirgan: “*Hukmronlarning bu qilgan jabrlari o‘zlari uchun eng yaxshi, biz musulmonlar uchun esa eng jonsiz va xarobligi bilan achinarlidir*” (TA, IT, 491-b). Maqolalardagi matniy (kontekstual) antonimlarni tahlil qilar ekanmiz, Behbudiyning faqatgina tilda avvaldan mavjud so‘zlardangina foydalanmaganligiga, balki ba’zi hollarda aytmoqchi bo‘lgan fikrni, tushunchani aniqroq, yaxshiroq, kuchliroq, ta’sirchan ifodalaydigan so‘zlarni topishga, lozim o‘rinlarda ularni o‘zi yasashga, original tarzda qo‘llashga intilganligini ko‘ramiz: “*So‘zni qisqasi, tiyotrxonalar masxarabozxona bo‘lmay, balki ibratxonadur*” (TA, IIT, 13-b). Yuqoridagi parchada qo‘llangan *masxarabozxona* leksemasining okkazonal yasalma sifatida *ibratxona* leksemasiga nisbatan kontekstual zid ma’noda qo‘llanishi muallifning uslubiy mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganidan dalolat beradi.

Bobning “Graduonimlarning leksik-semantik va qo‘llanish xususiyatlari” deb nomlangan uchinchi bo‘limida Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasida graduonimiya, ya’ni so‘zning ma’no guruhlari a’zolarida u yoki bu belgi darajalanishining leksemalararo munosabatlarda voqelanishi masalasi o‘rganilgan. Mazkur til hodisasi lisoniy darajalanish (graduonimiya) hamda nutqiy, uslubiy darajalanish (graduonimiya) tarzida ikki turga ajratilib tahlil qilingan. Lisoniy darajalanish (graduonimiya) leksik birliklar ifodalagan semantik ma’nolardagi sifat belgilarining o‘sib borish yoki kamayib borish munosabatlari bilan bog‘lanishidir. Bunda odatdagi til qonuniyati sifatida graduonimik paradigma a’zolari turli denotatlarda ayni bir belgining turli miqdorda o‘sib borish yoki kamayish xususiyatlarini ifodalaydi. Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistik uslub talabi bilan lisoniy graduonimlardan unumli foydalangan va ular quyidagi ma’nolarda darajalanishni yuzaga keltirgan: 1) qo‘llanish davrining tarixiylikiga ko‘ra darajalanish qatorini hosil qilgan leksemalar *maslahat – mashvarat – kengash*: “*Ma’qul va naflik maslahat va mashvaratlarni eshitmoq kerak. Boshqalardan ibrat olub, kengashmoq lozim*” (TA, IT, 486-b); 2) qo‘llanish doirasining keng-torligiga ko‘ra darajalanish hosil qilgan leksemalar *pand – nasihat – o‘git*: “*Har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkiri o‘z millatining oyandasi uchun yo‘l ko‘rsatur, mashvarat berur, millat axloqining islohi uchun masjidlarda pand va nasihat berur, mahalla va oilalarda dunyo va oxirat haqida o‘git berur*. (TA, IT, 389-b); 3) belgini kuchli darajada ifodalashiga ko‘ra darajalanish qatorini hosil qilgan leksemalar *mushkul – mashaqqatli – dushvor*: “*Muallim afandilar shogirdlarig‘a bul tariqa*

¹³ Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 153.

mushkul, mashaqqat va dushvorlik ishlarini fikr qilmasmukinlar” (TA, IT, 242-b); 4) tarkibining bog‘liqli-bog‘liqsizligiga ko‘ra darajalanish qatorini hosil qilgan leksemalar *umumiylik – xususiylik*: “*Bulhavas vakillar, albatta, sharmsor bo‘ladur, umumiy va xususiy hollaridin har kun xabardor bo‘lub turadurmiz*” (TA, IT, 256-b); 5) hududiy ko‘lamining kengligiga ko‘ra darajalanish hosil qilgan leksemalar *mahalla – guzar – daha*: “*Bu ayb muallimniki emas, mahalla va guzar xalqining aybidur. Hozir jam‘i shahar va dahalarimizning yuzdan to‘qsoni kalon‘om balhum azalg‘a mazhardur*” (TA, IT, 256-b); 6) miqdorning oshib borishiga ko‘ra darajalanish hosil qilgan leksemalar *uch – to‘rt – besh*: “*Bu fasl va boblar kitobimizni aqliy qismidurki, ushbu fanlarni o‘qumagan kishi uch, to‘rt, besh, hatto o‘n marotaba ba‘zi joyini takror o‘qumaguncha tushunmaydur*” (TA, IT, 244-b); 7) hajmning oshib borishiga ko‘ra darajalanish hosil qilgan leksemalar *sahifa – fasl – bob*: “*Chunki ul kitoblarni har qayu sahifa, fasl va boblarida ozodlik olmoq nishonasi bo‘lmay zodlikg‘a sabab yo‘q*” (TA, IT, 242-b); 8) sathga nisbatan quyi-yuqori ekanligiga ko‘ra darajalanish hosil qilgan leksemalar *past – tekis – baland*: “*Har qancha xatti istivoning tekis tarafig‘a ketilsa, Temur qoziq yulduzi past va baland bo‘lganig‘a qarab vaz‘ va taqsim qilgandurki, shoyad boshqa vaqtda tafsil va kayfiyatidan yozilur*” (TA, IT, 449-b); 9) harakat va holatning bajarilish zamoni, paytiga ko‘ra darajalanish hosil qilgan leksemalar *demaduk – demayapmiz – demaymiz*: “*Biz hech kimni shaxsiga zarar qiladurgon so‘z demaduk, demayapmiz va demaymiz*” (TA, IT, 328-b). Misollardagi lisoniy graduonimik qator a‘zolari darajaning ortib borishi tartibida, miqdorning, sifatning oshishi, bo‘yoqdorlik va ekspressivlikning kuchayishi tartibida voqelanmoqda. Publitsistik matnda voqea-hodisaning tavsifi jarayonida bunday lisoniy darajalangan leksemalardan foydalanish aytilmoqchi bo‘lgan fikrning reallashishini ta‘minlashga xizmat qilgan.

Publitsistik uslubda so‘z tanlash san‘ati xususida fikr borar ekan, bo‘yoqdorlik, ekspressivlikni oshirish uchun, albatta, so‘zlarning nutqqa jilo beruvchi turlaridan oqilona va matnga mos ravishda foydalanish o‘ta muhim hisoblanadi. Muallif bunda nafaqat leksik graduonimiyadan, balki stilistik graduonimiyadan, ya‘ni uslubiy vosita sifatida matndagi gaplarning yoki gap tarkibidagi bir turga mansub uyushiq bo‘laklarning ma‘no va mazmuni, ahamiyati, matnning umumiy mazmunidagi ta‘sirchanligi borasidagi gradual o‘sishi, gradatsiyadan ham foydalanadi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistikasidagi ma‘noning darajalanib, oshib, kuchayib boruvchi ottenkaga ega bo‘lishini ta‘minlagan, maqola tilining ekspressiv imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilgan gradatsiya hodisasining quyidagi tiplarini keltirish mumkin:

1. Kishilarga xos bo‘lgan belgi-xususiyyat ma‘nosining darajalanishi. *bedonish > bexabar > behavas*: “*Ammo hozirgi naqd aybimiz, bedonish, bexabar va behavasligimizdur*” (TA, IT, 207-bet).

2. Shaxsni ilm-ma‘rifat va ijtimoiy-diniy jihatdan tavsiflash ma‘nosining darajalanishi. *xo‘ja > eshon > sayyid*: “*xo‘jaman, eshonman, sayyidman deb da‘vo qilguvchilarning, modomiki, ilmu amallari hasbi shar‘iy bo‘lmasa, ul da‘vo va nasablarining samarasi yo‘qtur*” (TA, IT, 175-bet).

3. Insonlarga xos aniq va mavhum a‘zolar ma‘nosining darajalanishi.

tan > jon > ruh: “*Begona ellarda oh va nola ila jonsiz bir holatda osmong‘a termulub yotgan, **tani, joni** va **ruhi** majruh bir musulmonni tasavvur etingiz*” (TA, IT, 175-bet).

4. Shaxsni kasb jihatdan tavsiflash ma‘nosining darajalanishi. do‘konchi > gilkor > kosib: “*Bir **do‘konchi**, bir **gilkor**, bir **kosib** uchun bu to‘y va ta‘ziyalar o‘lumdan qattig‘durki, muning uchun bechora har kun o‘lur*” (TA, IT, 54-bet).

5. Shaxsga oid moddiy ne‘mat ma‘nosining darajalanishi. aqcha > sarvat > davlat > somon: “*Din uchun, masjid va maktab uchun **aqcha, sarvat, davlat, somon** kerakdur*” (TA, IT, 455-bet).

6. Shaxs holatini ifodalash ma‘nosining darajalanishi. ahvol > afkor > atvor: “*O‘z zamondoshlarining **ahvoli, afkori, atvorini** bilmoq kerakdur*” (TA, IT, 406-bet).

7. Shaxs, narsa va predmetlarga xos taalluqlilik, xossa ma‘nosining darajalanishi. ibtidoiy > rushdiy > e‘dodiy > oliy: “*Makotib orasida irtibot (bog‘liqlik) bo‘lub, **ibtidoiylardan** (boshlang‘ich maktab) **rushdiylarga** (to‘liqsiz o‘rta maktab), **rushdiylardan e‘dodiylarga** (o‘rta maktab) va **e‘dodiylardan oliylarga** (oliy maktab) qulayliq ila talabalar qabul qilinadurg‘on usulda bo‘lur*” (TA, IT, 161-bet).

8. Adabiy janrlar, matbuot nashrlari nomlarining darajalanishi. qissa > hikoya > g‘azal: “*Bizning xalqlar andog‘ kitoblardan ko‘ra xurofotlik **qissa, hikoya** va oshiqona **g‘azal** kitoblarig‘a ziyoda rag‘batlik bo‘lganidan moddiy foydasini ko‘zlab, shunday afsona va aslsiz kitoblarni tab‘ va nashr etmaktamiz*” (TA, IT, 438-bet).

9. Asosdan anglashilgan narsa-hodisa, belgi bilan xarakterlanuvchi holatning darajalanishi. qimmatchilik > qahatchilik > suvsizlik: “*Muhtaram birodarlar! Hozirgi **qimmatchilik, qahatchilik** va **suvsizlik** hamma‘a ma‘lumdir*” (TA, IIT, 477-bet).

Nutqiy darajalanish yuqoridagi kabi faqat lesemalararo munosabatlarda emas, balki matndagi so‘z birikmasi va gaplarning ma‘no-mazmunida voqelananib, matnning umumiy mazmunidagi ta‘sirchanlik gradual o‘shish holatini o‘zida aks ettirgan o‘rinlar ham kuzatiladi: “*Har dam jigarbandini **domi balog‘a, o‘qi jafog‘a** va **jahannammisol otashg‘a** qarab intilaturgan holatini yodg‘a olib ko‘ngli laxta-laxta qon bo‘lguvchi bechora oilalarni yodingizg‘a va ko‘z oldingizg‘a kelturingiz*” (TA, IT, 460-bet). Keltirilgan misolda *domi balo* – *o‘qi jafo* – *jahannammisol otash* nutqiy darajalanish qatori so‘z birikmasi va izofali konstruksiyalar orqali hosil qilinib, fikrdagi ta‘sirchanlikning oshishiga xizmat qilgan. Adib publitsistikasida qo‘llangan nutqiy darajalanish pragmatik omillar ta‘sirida o‘z mohiyatidan tashqariga chiqmagan holda uslubiy vazifa bajarishga xizmat qilgan.

Ishning uchinchi bobini “**Behbudiy publitsistikasida ko‘chimlar va okkazional yasalmalarning qo‘llanish xususiyatlari**” deb nomlangan. Bobda Behbudiy publitsistikasida so‘zlarning xilma-xil ko‘chma, ramziy hamda okkazional ma‘nolarda qo‘llanishi holati o‘rganilgan. Shuningdek, adibning til birliklarining semantik tabiatidagi eng muhim halqa sanaladigan leksema va iboralarni ko‘chma ma‘noda qo‘llashi orqali publitsistik matnning obrazlilik, tasviriylik imkoniyatlari ta‘minlanganligi yoritilgan.

Bobning “Metaforik ko‘chimlarning nutqiy xususiyatlari” deb nomlangan birinchi bo‘limi Mahmudxo‘ja Behbudiy publitsistik ijodida tushuncha va holatni, kayfiyat va kechinmalarni, voqea-hodisalar mohiyatini quyuq obrazlar vositasida

ifodalash usuliga, ya'ni metafora asosidagi so'z ko'chimining nutqiy voqelanish xususiyatlariga bag'ishlangan. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistik nutq uchun muhim omil bo'lgan badiiy vosita – metaforalardan unumli foydalanib, maqolalari tilining semantik-sitilistik rang-barangligini namoyish qila olgan, bu usul asosidagi so'z ko'chmlari ot, sifat, fe'l turkumiga oid leksemalar orqali voqelangan.

Adibning publitsistik nutqida ot leksemalar ekspressivlikni yanada oshirish maqsadida o'xshatilayotgan narsa, predmetdan iborat sodda metafora shaklida: “*Man bu erga ko'b fikr qildim, hamma derki, musulmonlar **karvoni** ortqa qoldi*” (TA, I, 274-bet); “*Bu kun har tarafda baxtiyor musulmonlar **narvoni** taraqqiyga qadam bosmishdir*” (TA, I, 277-bet); aniq yoki obstrakt tushunchani ifodalovchi so'zning metaforik ma'no ifodalayotgan so'zga birikishi natijasida hosil bo'lgan kengaygan metafora shaklida: “*Ona tili, ona tili... Bu yaxshi orzu. Ammo **tilsiz onalar tiliga** maktabiy kitoblar yozila bersa, Turkistonda adadsiz **buzuq ona tillar** shevasig'a adadsiz kitoblar yozmoq lozim kelurki, Andijonda yozilgani Buxoroda, Avliyootada yozilgani Qarshida anglashilmaydur*” (TA, II, 34-bet) o'xshatishli ko'chmlarni hosil qilgan.

Muallif publitsistik maqolalarida qahramonlarning xarakter-xususiyati, siyrat va suratini tasvirlashda, voqea-hodisalar, holatlar tasvirida sifat-metaforalarning o'xshatishli konnotativ ma'nolaridan o'rinli foydalalanadi. Ayniqsa, rang-tus, xususiyat, holat sifatlari asosidagi metaforalar publitsistik nutqda ham o'ziga xos konnotatsiya hosil qilishi va pragmatik maqsadlarda qo'llanishini quyidagi misollarda kuzatishimiz mumkin: “*Bizning bu so'zimizg'a ehtimolki, ba'zi muharrirlarimiz rozi bo'lmay, balki **qaro** bo'ldi desa, biz rangga boqmay natijag'a boqarmiz*” (TA, I, 312-bet); “*Bu so'zlar mubolag'a emas, balki umumiy hol, besar va **somonligimizdin** shokoyatdir*” (TA, I, 290-bet); “*Rusiyag'a tobe bir necha milliyon musulmonning bu holati yuz **qizilligidur***” (TA, I, 209-bet); “*Alalxusus, dorushshifodagi islom **xastalarig'akim**, Turkiston tabiati va maishatig'a hanuz begona va nooshnodurlar*” (TA, I, 232-bet).

